

O'ZBEK ADABIY TILI VA UNING TARAQQIYOTI BOSQICHLARI



Xaydarova Ismigul Yaxyo qizi

*Samarqand davlat universiteti Markaziy
Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)
yo'nalishi 1- bosqich 107- guruh talabasi.*

E-mail: xaydarovaismigul3@gmail.com

Tel: +998933228187

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda yoritilgan. Qadimgi turkiy davr, eski o'zbek adabiy tili davri, jadid adabiyoti bosqichi va hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, adabiy tilning me'yorlashuvi va milliy madaniyat taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan. Maqolada til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy va madaniy omillar ham ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiy tili, til taraqqiyot bosqichlari, qadimgi turkiy til, eski o'zbek tili, til me'yorlari, milliy til va adabiy til, zamonaviy o'zbek tili.

Abstract: This article covers the process of formation and stages of historical development of the Uzbek literary language on a scientific basis. The ancient Turkic period, the period of the old Uzbek literary language, the stage of Jadid literature and the development processes of the modern Uzbek literary language are analyzed. The standardization of the literary language and its role in the development of national culture are also revealed. The article also considers the historical and cultural factors that influenced the development of the language.

Keywords: Uzbek literary language, stages of language development, ancient Turkic language, old Uzbek language, language norms, national language and literary language, modern Uzbek language.

Kirish

O'zbek adabiy tili xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi, tafakkuri va madaniyatining yorqin ifodasidir. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, tarixiy bosqichlar davomida takomillashib borgan. Tarixan tarkib topgan, umumxalq tilining ishlangan, sayqallantirilgan, ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolibga solingan, boy leksik zaxirasi va grammatik tuzilishi

me'yorlashtirilgan, doim silliqashtirilib, mukammallashtirilib, boriladigan shakli adabiy til deb ataladi. Adabiy til millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda o'zbek adabiy tilining shakllanishi va evolyutsion rivojlanish bosqichlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

Tarixiy-qiyosiy metod: Turli davrlarga oid til yodgorliklari (fonetik, leksik va grammatik sathlar) o'zaro qiyoslanib, adabiy tilning tarixiy transformatsiyasi tahlil qilindi.

Sinxron va diaxron tahlil: Til hodisalari ham muayyan bir davr kesimida (sinxron), ham vaqtlararo rivojlanish dinamikasida (diaxron) o'rganildi.

Deskriptiv (tavsifiy) metod: Qadimgi, eski va hozirgi o'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari hamda me'yorlashuv jarayonlari ilmiy tavsiflandi.

Funksional-stilistik yondashuv: Adabiy tilning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va badiiy sohalaridagi qo'llanish doirasi hamda uslubiy rivojlanishi tahlil etildi.

Tadqiqotning manba bazasini qadimgi turkiy bitiktoshlar, mumtoz adabiyot namunalari va zamonaviy tilshunoslikka oid nazariy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot va natijalar

O'zbek adabiy tilining tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari ma'lum bir manbalarda turli xil dalillar asosida keltirilgan. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Qadimgi turkiy adabiy til;
2. Eski o'zbek adabiy tili;
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili;

Qadimgi turkiy adabiy til X - XII asrlarni o'z ichiga oladi. O'zbek adabiy tili dastlabki davrlarda umumturk adabiy tili sifatida X - XI asrlarda tashkil topgan. Bu fikr dastlab A.N. Samoylovichning "chig'atoy adabiy tilida jo'qchilik unsurlari" nomli ishida bayon qilingan. Darhaqiqat, qadimgi adabiy tilimizning eng nodir namunalaridan biri bo'lgan "Qutatg'u bilig", "Hibat-ul haqoyiq", "Devonu lug'atit turk" kabi dunyoga mashhur bo'lgan yodgorliklarimiz ham bu fikrni tasdiqlaydi. Lekin bu davr adabiy tili faqat o'zbeklarning, yani o'zbek xalqiga mansub bo'lgan kishilarnigina adabiy tili bo'lmay, O'rta Osiyoda yashovchi barcha turkiy xalqlarning umumiy adabiy tili bo'lgan. Shuning uchun ham bu til qadimgi turkiy til deb ataladi. [3.213]

Eski o'zbek tili XIII - XV asrlarda shakllangan bo'lib, u Ulug' Oktabrning arafasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning ro'li nihoyatda kattadir. Alisher Navoiy o'zining jahonga mashhur durdona asarlari bilan o'zbek adabiy tilini jahon miqyosiga olib

chiqqan bo'lsa, "Muhokamat ul lug'atayn" singari noyob ilmiy asari bilan eski o'zbek adabiy tilini, uning badiiy stilistikasini ilmiy - nazariy jihatdan asoslab berdi.

Eski o'zbek adabiy tili, asosan, XIII asrdayoq shakllanib ulgurgan edi. Shunga ko'ra, umuman olganda, eski o'zbek adabiy tili Navoiygacha shakllangan edi deyish mumkin. Eski o'zbek adabiy tilining bir butun adabiy til sifatida to'la shakllanishi va keng ko'lamda rivojlanishi Navoiy nomi va xizmatlari bilan bog'liqdir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili - o'zbek sotsialistik millatining milliy adabiy tilidir. Ulug' Oktabr sotsialistik revolutsiyasi xuddi ana shunday olamshumul voqealardan hisoblanadi. Shuning uchun ham oktabr revolutsiyasidan ham keyin yangi o'zbek adabiy tili xalq tili asosida yangidan tashkil topdi - tom ma'nodagi xalqchil o'zbek adabiy tili yuzaga keldi. Adabiy tilning lug'at sostavi tez suratlar bilan boyidi, gramatik qurilishi yanada silliqlashib, xizmat qilish doirasi va stilistik imkoniyatlari kengaydi. Adabiy tilda, yangidan yaratilgan juda ko'p zamonaviy terminlar bilan bir qatorda, yangi terminologiya ham yuzaga keldi. Adabiy tilning xalq tili bilan aloqasi kuchaydi.

Hozirgi o'zbek tili adabiy til sifatida; 1989 - yil 21 - oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Aynan shu kuni "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida" gi Qonun qabul qilindi. Shu sababli 21 - oktabr o'zbek tili bayrami kuni sifatida nishonlanadi. Shu kundan boshlab barcha davlat hujjatlari: qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar o'zbek tilida yuritiladigan bo'ldi. Kino, radio va televideniyaning ommalashuvi o'zbek tilining adabiyot, teatr va musiqa san'ati, siyosat va fanda qo'llanish masshtabini ancha kengaytirdi. O'zbek tilida badiiy adabiyotning o'sishi, badiiy tarjimaning rivojlanishi, badiiy, ilmiy va ilmiy ommabop kinokartinalarini yaratilishi, o'zbek tiliga dublyaj qilinishi uning funksional rivojida muhim rol o'ynadi. O'zbek tilining roli ayniqsa, ma'orif sohasida kengayib bormoqda. Respublikamizda talimning barcha sohalari: umumtalim maktablari, hunar-tehnika bilim yurtlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida talim asosan o'zbek tilida olib borilmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, o'zbek adabiy tili ko'p asrlik murakkab va boy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan milliy qadriyatimizdir. O'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti qadimgi turkiy davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan uzviy evolyutsiyani qamrab olib, Alisher Navoiy davrida o'zining ilmiy-estetik cho'qqisiga yetgan. 1989-yilda Davlat tili maqomining berilishi va zamonaviy o'zgarishlar tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, uni raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan rivojlangan tizimga aylantirdi. Ushbu xulosa o'zbek adabiy tilining rivojlanishi millatning madaniy-ma'naviy yuksalishi bilan hamnafas kechuvchi jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

Muammo va takliflar. Muammo: 1. Qadimgi turkiy va eski o'zbek manbalari yetishmasligi til tarixini to'liq tahlil qilishni qiyinlashtiradi. 2. Hozirgi o'zbek tilining

zamonaviy terminologiya va stilistik rivojlanishi yetarlicha o'rganilmagan. 3. Metodologik jihatdan ba'zi tadqiqotlarda leksik va grammatik tahlil yetarli emas. Taklif: 1. Qadimgi va eski manbalarni kengroq o'rganish, raqamli bazaga kiritish. 2. Zamonaviy o'zbek tilini media va onlayn manbalar orqali monitoring qilish. 3. Tarixiy, taqqosiy va tahliliy metodlarni birlashtirib, tilning evolyutsion rivojlanishini tizimli o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madrim Hamrayev (Ona tili ma'ruzalar to'plami).
2. SH. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hodjiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov (Hozirgi o'zbek adabiy tili 1- qism).
3. R. R. Sayfullayeva, B. R. Mengliyev, L. R. Raupova, M. M. Qurbonova, M. Q. Abuzalova, D. N. Yo'ldosheva (Hozirgi o'zbek adabiy tili). [3.213]